

BANKLARDA KOORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM PRINSPLARI

Asqarov Furqat Akmal o'g'li

Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi, xo'jalik ishlari bo'lim boshlig'i Osiyo Xalqoro Universiteti Iqtisodiyot (tarmoqlar aro) 2- kurs magistranti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Bank sohasida koorperativ boshqaruv jarayonini tashkil etish, hamda uni samaradorligini oshirish bo'sida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, Tijorat, menejment, nizom, koorperativ, tashkilot, bank, samara, tashkiliy-tarkibiy.*

O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida tijorat banklarining xalqaro moliya bozorlarida mavqei mutahkamlanib ularning raqobatbardoshligi oshirilmoqda. Tijorat banklarining faoliyatida risklarni boshqarish tizimi va strategiyasini ishlab ehiqishi hamda uni amalga oshirishni nazorat qilish. bank kengashining rolini oshirish va qarorlar qabul qilish protsedurasini takomillashtirish talab etiladi. Bunga esa bevosita tijorat banklarida korporativ boshqaruv shaklini keng joriy qilish orqali erishish mumkin. Shuningdek, banklarning mustaqil rivojlanishi va resurslarni samarali boshqarishi ularda bank menejmenti sifatini oshirishni talab etadi va bu ham korporativ boshqaruv bilan bog'liq. Hozirgi sharoitda rivojlangan mamlakatlarsingari O'zbekistonda ham banklarni korporativ boshqaruv masalalari asosan tartibga soluvchi davlat organlari toronidan amalga oshirish talab etilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2000 yil 24 iyundagi I 1/6-sonli bayonnomasi, №472-sonli "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida"- gi Nizomi ishlab chiqilib, shunga muvofiq banklarda korporativ boshqaruv ishlari tashkil etiladi. Korporativ boshqaruv tushunchasi 1970 yillarning oxirida AQSHda qo'llanilgan. Buning sababi o'sha paytlarda AQSHdagi yirik kompaniyalar va firmalar siyosiy partiyalarni moliyalashtirish va korrupsiyaning rivojlanishi natijasida mulkni boshqarishning jamoaviy shakliga o'tishga majbur bo'lgan.

Nazariy jihatdan korporativ boshqarish banklarni aksionerlik jamoaviy shaklida boshqarilishini tushunamiz. Lekin, ba'zi hollarda uning mohiyati turiicha talqin qilinishi hollariga duch kelamiz. Masalan ba'zi olimlar bankning bajaradigan operatsiyalarini boqsharish tizimi deb tushuntirsa, boshqalari esa bank resurslarni boshqarish deb o'rganishadi. Korporativ boshqarishda bankning ichki va tashqi omillari hisobga olingan holda boshqarish tizimiga aytiladi.

Korporativ boshqaruvning ma'lum bo'lgan 3 ta ta'limoti mavjud: •

«agentlik» ta'limoti;

• «boshqaruv» ta'limoti;

• «ijtimoiy javobgarlik» nazariyasi ta'limoti.

“Agentlik” ta’limotiga asosan boshqaruv direktori aksionerlar yollagan xodim bo’lib, u aksionerlarga hisobot beradi va ularning manfaatlarini yuqori qo’yadi. «Boshqaruv» ta’limotiga muvofiq direktor sifatida maxsus vakoliatlar, huquqlar va majburiyatlar berilgan shaxs hisoblanadi (ya’ni ularning maqomi yuqori bo’ladi); bunga ixtiyoriy tartibii shaxs bo’lishi va qonunlar asosida ishi tshshi lozim. «Ijtimoiy javobgarlik» nazariyasi «aksionernaya kompaniya» chegaralarini kengaytiradi, va u «boshqa manfaatdor shaxslarni» o’z ichiga oladi. Oxirgi ta’limot bo’yicha barcha shaxslar jamiyat. kreditorlar, aksionerlar, omonatchilarni ham o’z ichiga oladi. Bank boshqaruvi korporativ boshqarishni o’zida bank faoliyatini boshqarish tizimi va faoliyat yo’nalishlarini mujassamlashtiruvchi tartiblar va asosiy ishtirokchiiar o’rtasidagi munosabatlarni tartibga solinishini nazarda tutadi. Korporativ boshqaruvni ikki xil yondashuv asosida - aksionerlar konsepsiyasi va ishtirokchiiar konsepsiyasi asosida tahlil qilish mumkin. Korporativ boshqaruvni birinchi aksionerlar 55 konsepsiyasiga muvofiq yondashish tor ma’noda bo’lib — aksionerlik jamiyatining hisobdor shaxslari bo’lib boshqaruvchilar hisoblanadi va bu yuqoridagi 2 ta’limotga asoslanadi. Korporativ boshqaruv keng ma’noda - ishtirokchilar konsepsiyasiga muvofiq dahldor bo’lgan hamma shaxslarning (aksionerlar, boshqaruvchilar, kreditorlar, kontragentlar, yollangan xodimlar, davlat va boshqalar) rasmiy va norasmiy munosabatlar tizimi sifatida qarash mumkin. Boshqa tizimlar singari (tartibga solish, boshqarish) korporativ boshqarishda ham elementlar bo’lib, ularni 3 ta guruhga bo’lish mumkin:

- ❖ tashkiliy-tarkibiy;
- ❖ normativ-huquqiy;
- funksional.

Tashkiliy-tarkibiy element amaliy faoliyatini amalga oshiruvchi bo’limlar o’z ichiga oladi. Normativ-huquqiy o’z ichiga kompaniyaning huquqiy maqomini belgilab beradigan me’yoriy aktlar va korporativ boshqaruv kodekslarini oladi. Funksional blok o’z ichiga faoliyatni amalga oshirish, uning yo’nalishlari, shakllari va usullari, vositalari, choralarini oladi. Korporativ boshqarishni turli mamlakatlarda turlicha talqin qilishadi. AQSHda va Angliyada kompaniyalarning kapitaliga ko’pchilik alohida shaxslar va firmalar egalik qiladi. Korporativ boshqaruvning kontinental modeli amal qiluvchi davlatlarda (Evropa, MDFl, Lotin Amerikasi) asosan jamiyat ulushi guruhlariga tegishli bo’ladi. Shundan kelib chiqib ushbu mamlakatlarda AQSHga nisbatan kapital taqsimoti va unda ovozlar berilishi konsentratsiyasi nisbatan yuqori.

Bugungi kunda samarali korporativ boshqaruv tizimi investitsion qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda. va shu jihat sabab korporativ boshqaruv tizimi mavjud bo’lmagan kompaniya raqobatbardosh va investitsion jozibador bo’lish uchun bozorning to’liq ishtirokchisiga aylanish imkoniyatiga ega emas. Jahon amaliyotida so’nggi o’n yillikda korporativ boshqaruvga bo’lgan bunday jiddiy e’tiborning asosiy mezonlari investorlar uchun yanada xavfsizroq va qulay muhit yaratish istagi hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi Korporativ boshqaruv kodeksiga

ko'ra, Korporativ boshqaruv – bu aktsiyadorlik jamiyati ijroiya organi, uning kuzatuv kengashi, aktsiyadorlari, mehnat jamoasi vakillari va boshqa manfaatdor tomonlar, jumladan kreditorlarning manfaatlarining muvozanatiga erishish maqsadida, AJ faoliyatini samarali tashkil etish, modernizatsiyalash, ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik qayta qurollantirish, raqobatbardosh mahsulotni ishlab chiqarish va uni tashqi bozorlarga eksport qilishni ta'minlashga qaratilgan o'zaro munosabatlar tizimidir. Korporativ boshqaruv bo'yicha tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olim A.Berlining tadqiqotlarida korporatsiyalarni boshqarishda strategiyani tanlash va korxonaga menejmentini rivojlantirish, investitsion faoliyatni boshqarish masalalari tadqiq etilgan[5]. M. Xesselning tadqiqotlarida «Korporativ boshqaruv – bu mulkdorlar va boshqa manfaatdor shaxslarning korxonaga faoliyatini baholash va nazorat qilish bilan bog'liq o'zaro munosabatlari hisoblanadi». [6] Korporativ boshqaruv kodeksining muallifi (1992) Ser Edrian Kadberning korporativ boshqaruv tizimini isloh qilish bo'yicha takliflarni o'z ichiga olgan dokladiga asosan korporativ boshqaruv (inglizcha so'zdan olingan bo'lib, Corporate Governance) – bu kompaniya faoliyatini boshqarish va nazorat qilishni amalga oshirishni ta'minlovchi tizimidir.

Ushbu tadqiqotlarda korporativ boshqaruvning banklar uchun qanday muhimligi va uning samaradorligi, korporativ boshqaruvni o'rganish va amalga oshirishning metodlari, boshqaruv organlarining vazifalari va funksiyalari, shikoyatlar va takliflarni qabul qilish tizimi, hissadorlik munosabatlari, moliyaviy hisobotlashning tartibi kabi mavzular o'rganib chiqilgan.

Korporativ boshqaruv banklarda ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Korporativ boshqaruv tizimi yordamida banklar faoliyatini nazorat qilish, malumotlarni taqdim etish va hissadorlik munosabatlari bilan shug'ullanadilar. Bu esa ishlab chiqarish quvvatini texnik va texnologik ravishda rivojlantirishga imkon beradi.

Banklar korporativ boshqaruv tizimini amalga oshirib, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarib uni eksport qilish imkoniyatini ta'minlashadi. Buning uchun banklar korporativ boshqaruvni strategik rejalashtirish va investitsion faoliyatni boshqarish masalalarini o'rganish va rivojlantirishga e'tibor beradilar.

Korporativ boshqaruv banklarda strategiyani tanlashda va korxonaga menejmentini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu tizim yordamida banklar investitsion faoliyatni boshqarish, moliyaviy hisobotlashning tartibi, korporativ boshqaruv kodeksi asosida takliflarni qabul qilish tizimini amalga oshirish va shikoyatlarni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Korporativ boshqaruvning banklar uchun strategik rejalashtirish va investitsion faoliyatni boshqarish masalalarini o'rganib chiqilgan tadqiqotlar, banklar uchun korporativ boshqaruvning muhimligini ko'rsatmoqda. Bu tizim yordamida banklar ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik ravishda rivojlantirib, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarib uni eksport qilishi imkoniyatiga ega bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-sonli farmoni "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi".

2. Mirziyoev Sh. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar.

3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida (yangi tahriri)", 1996 yil 26 aprel. Yangi tahriri O'RQ-370 son bilan 2014 yil 06 mayda tasdiqlangan.

4. Arguden, Y. (2011). Measuring the Effectiveness of Corporate Governance Available from Internet: <http://knowledge.insead.edu/corporate-governanceeffectiveness100415.cfm>.

5. Berle A.A., Means G.C. The Modern Corporation and Private Property. Commerce Clearing House, Chicago, IL, 1992- pp. 68-89